

NATYURMORT CHIZISHDA NATURANI TAHLIL QILISH JARAYONIDA  
ENTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH YO`LLARI

*Mayra Xaydarova Ergashovna*

*SHahrisabz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
San'atshunoslik kafedrasi O'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san`atda naturaga qarab tasvirlash amaliy mashg`ulotlarida naturani tahlil qilishning enterfaol usullari haqida uslubiy ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Natura, natyurmort, rangtasvir, enterfaol, grafik organayzer.

Tasvirlash ilmining asoslardan biri natyurmort ishlash bo`lib hisoblanadi.Natyurmort asli fransuzcha so`z bo`lib,jonsiz tabiat degan ma`noni anglatadi.Ma`lumki har bir rassom tasviriy san`atni o`rganishni natyurmort chizishdan boshlaydi.Hayotdagi bizga ma`lum buyumlar, narsalar shaklini,formasini,xarakterini,rangini o`zlashtirishning dastlabki saboqlarini aynan ana shu natyurmort janrini ham amaliy ,ham nazariy o`rganish orqali hosil qilinadi.

Natyurmort janri tasvirlash ilmining asosi bo`lib qolmasdan mustaqil janr hamdir.Bu janrda ko`plab rassomlar ijod qilganlar hamda qilib kelmoqdalar.Natyurmort janrida ishlangan asarlar o`zining qiziqarliligi,mazmunan aniq va bo`yligi,jozibador va turmush tarziga yaqinligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.Shuning bilan bir qatorda mavzuli rasmlarda mazmunni ochib beruvchi,uni to`ldiruvchi ham bo`lib hisoblanadi.

Naturaga qarab tasvirlash darslarini samarali qiziqarli o`tkazish esa hozirgi zamon rassom pedagogidan yetarlicha pedagogik mahorat talab qiladi.Bizga sir emas buyumni tasvirlash,uni asliga o`xshatish borasidagi bilimlarga ega bo`lish amaliy mehnat,vaqt talab etadi.Har bir amaliy mashg`ulotlar bosqich asosida ma`lum ketma-ketlikda bayon etilib amaliy jihatdan bajarib boriladi hamda natijaga erishiladi. Bu jarayon ham qiziqarli ham mashaqqatli mehnatni talab etadi.Har bir qo`yilgan buyumni sinchkovlik bilan o`rganish,uni tahlil qilish,to`g`ri tasvirlay olish ilmi hamisha ham oson bo`lavermaydi.Alaloqibat o`rganuvchida qiziqishning susayishi,ishning natijasidan qoniqmaslik, ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin.Ishonchsizlik esa tushkunlikka olib keladi.Bunday tushkunlik holatlarini bartaraf qilish uchun darsda turli enterfaol usullardan foydalnib borish yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etilishiga ko`mak beradi.Amaliy mash g`ulotlarda enterfaol metodlardan foydalanish bir qarashda muammolikdek ko`rinadi.Aslida uni o`rnida foydalanilsa dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, babs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Shu o`rinda interfaol usulga to`xtalib o`tsak;

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarining soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

**Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi.** Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriqbo’lgan o’qish-o’rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, tasviriy san`at fanlarini o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri echimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo’ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

**Hozirgi kunda ta’lim jarayonida foydalilaniladigan eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:**

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqalar.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” “Ha yoki Yo’q “kabilar. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.bunday metod elementlarini yangicha yondashuv qilib kiritish mumkin albatta.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib,Talabalarni jamoa bo’lib ishslashga undovchi amaliy metod ko`rinishidir.

Interfaol ta’lim metodlarini ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo’llanmoqda. Bu metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash nimalarga bog’liq, degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta’lim metodlarini to’g’ri tanlash va ularni qo’llash samaradorligining turli omillar bilan bog’liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

**birinchidan**, o’quv mashg’ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog’liq;

**ikkinchidan**, bayon qilinadshan materialning harakteriga bog’liq;

**uchinchidan**, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog’liq;

**to'rtinchidan**, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;

**beshinchidan**, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;

**oltinchidan**, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;

**yettinchidan**, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Eng muhimi masg`ulot uchun metodlardan oqilona foydalanish bo`lib, uni o`z o`rnida ishlata bilish, kerakli samarani berishi mumkin.

Quyida naturani tahlil etish jarayonini ko`rib o`tamiz.

Dastlab biz rasm chizish uchun qulay o`rnashamiz hamda qo'yilmani kuzatamiz. Kuzatish jarayonida esa naturani tahlil qilamiz. Natura-bu Fransuzcha so'z bo`lib, tabiat ma'nosini beradi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tabiatdagi barcga narsalarni asliga qarab chizish mumkin ekan. Ammo darsimiz uyo'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni chizish. Shunday ekan bizga natura sifatida yordamga kelayotgan buyumlar royxati bilan tanishamiz.

Buni "**Ha**"-"**Yo'q**" o'yini orqali amalga oshiramiz;

Guruhni 3 ta kichik guruhga bo'lamicha va bitta ekspert belgilaymiz.

Guruhrilar o`ziga sardor belgilaydi hamda guruhrilar uchun nom tanlaydilar. Masalan; Musavvir, Kamalak, Ijodkor bo`lishi mumkin.

**1-chi guruuh** uchun savollar;

osmon, shar, olma, mato, yer, ko'za, choynak, payola, qor, lagan.

**2-guruuh** uchun savollqar;

Qozon, vaza, pichoq, shaftoli, shamol, lagan, payola, qum, kosa, qoshiq.

**3 –guruuh** uchun savollar;

Guldon, kastryul, chumich, atlas, samovar, tuproq, sement, tarvuz, oftoba, choynak.....

Bu kabi savollarni davo ettirish mumkin. ha yoki yo'q jaavobiga adashmagan guruhga rag'bat kartochkkalari beriladi. Endi natura rang jihatdan yaxshilab kuzatiladi hamda talabalar birgalikda tahlil qilinadi. Bunda quyidagi savol javobdan foydalanish mumkin;

Naturaning rang koloriti qanday?

-Natyurmortdagi asosiy buyumning o'rni?


- Natyurmortdagи yorug'liklar orni?
- Natyurmortdagи soyalar qanday?
- Natyurtmotdagи reflekslarnи ko'rsating?
- Natyurmortdagи perspektiv qisqrishlar.
- Natyurmortdagи tekisliklar o'rni.
- Qaysi tekislik yorug', nimaga?

-Natyurmort orqa plani qanday tasvirlanadi?


Savollarga javob berilgach foal ishtirok etganlar rag`batlantirib boriladi

Shu o'rinda har bir amalga oshirilgan muvaffaqiyatlар javob yoki jarayon albatta e'tirof etilishi lozim. Rag`batlantirishda chalg`imaslik hamda aniqlik va qiziqarli bo`lishi uchun oldindan rag`bat predmetlarini tayyorlab olmoq kerak bo`ladi. Masalan: aylana shakli, to`rtburchak yoki uchburchak shakllaridan foydalanish mumkin. Bu shakllarni turli ranglar bilan bo`yalishi yanada zavqliroq bo`ladi.


1 .



2 .



3.




1-A`lo (5 ball)

2-Yaxshi(4 ball)

3-Qoniqarsiz(3 ball)

Qoniqarsiz javoblar albatta jarima bilan belgilanishi lozim buni biz qizil rangli kartochka bilan belgilaymiz;


4.



Kichik guruhlar uchun yana bir topshiriq grafik organayzerlar orqali amalga oshiriladi;

Bu "Qanday" grafik organayzeri bo`lib har bir guruh uchun alohida ishlab chiqiladi. Talabalarga uni bajarish shartlari tushuntiriladi.

Grafik organayzerni qaysi guruh aniq va to`g`ri to`ldirib, ko`proq ma`lumot kiritса shu guruhniga rag`bat ballari oshib boradi.



Bu kabi enterfaol metodlar mashg`ulotni tez va qulay o``rganishga hamda darsda barcha talabani foal ishtirok etishiga yordam beradi.Bunday metodlarni dars jarayonida ko`plab keltirish mumkin.Ammo tanlanayotgan metod samaradorligi darsga qanchalik foyda yoki foydasiz bo`lishini unutmaslik lozim ,aks holda dars sifatiga ta`sir qilishi mumkin.Yo`qorida keltirilgan enterfaol metod elementlari esa o`zining qulayligi,osonligi,qiziqlarligi bilan barcha tinglovchini o`ziga jalb qiladi.Talaba naturani tahlil qilar ekan qizg`in bahs –munozaraga kirishadi,fikrlaydi,muammoni birgalikda kichik guruhlarda ishlab chiqadi.bajargan vazifalarini mustaqil jamoa bo`lib taqdimot etadilar bajargan ishlarining natijalari orqali rag`batlantiriladilar .Albatta bunday jarayon orqali naturani mukammal tahlil qilish amaliy ish vaqtida o`z natijasini ko`rsatish bilan cheklanib qolmay,talabalarda natura bo`lishi lozim bo`lgan buyumlar ularning shakllari va tuzilishi haqida kengroq tasavvurga ega bo`ladilar. Talabalar naturani tahlil qilishda faqat o`qituvchi tomonidan berilgan bilimlar bilan cheklanmay barcha birgalikda faol ishtirok etadi.Mashg`ulotlarni bunday yo`sinda olib borilishi talabalar kayfiyatiga ijobiy ta`sir

etmasdan qolmaydi albatta, amaliy mashg`ulotni ko`tarinki kayfiyatda boshlasalar ularning ijodkorlik faoliyati amalda nomoyon bo`laboshlaydi.

Xulosa qilib aytganda tasvirlash ilmining o`zi qiziq jarayon bo`lib ,ko`pincha amaliy ko`nikma-malakalar ko`proq hosil qilinadi.Ammo har bir mavzuni tushuntirish jarayonida nazariy bilimlarni enterfaol metodlardan foydalanib berib borish o`z samarasini ko`rsatmay qolmaydi .Har bir shu fan mutaxassisi ,oz fanini sevuvchi ,ardoqlovchi ustoz bunday metodlardan keng foydalanadi albatta .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G'.M. Rangtasvir va kompozitsiya. Toshkent, 1995
2. Abdirasilov S. Tolipov N. "Rangtasvir" Toshkent, 2005
3. Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O'qituvchi, 1995
4. Beda G.V. «Osnovi izobrazitelnoy gramoti». Prosveshchenie
5. B.V. Iagonson. Shkola izobrazitelnogo iskusstva – M. 1998.